

NAVOIY SHAHAR O'SIMLIKLARINING EKOLOGIK VA ESTETIK  
AHAMIYATI, INSON SALOMATLIGIGA TA'SIRI

*Navoiy davlat universiteti Biologiya va  
qo'shimcha tabiiy fanlar yo'nalishi  
4-kurs talabasi - Majidov Mansur  
[mansurmajidov001@gmail.com](mailto:mansurmajidov001@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Navoiy shahar o'simliklarining ekologik va estetik ahamiyati, ularning soni va turlari, inson hayotida tutgan o'rni, Navoiy shahar florasini xilma xilligini ta'minash yuzasidan olib borilayotgan chora tadbirlar to'g'risida ma'lumotlar berib o'tilgan. Bundan tashqari Navoiy shahrining sho'rxok va qurg'oqchil yerlarida o'sish xususiyatiga ega bo'lgan o'simliklarni ko'paytirish hamda ularning plantatsiya jarayonida qilinishi kerak bo'lgan ish faoliyatlarini o'rganib chiqish hamda uni amalda qo'llashni batafsil yoritib berilgan. Shahar o'simliklari orasida inson salomatligiga ijobiy ta'sir etuvchi foydali va dorivor o'simliklar haqida batafsil malumotlar berib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** ekologiya, atrof muhit, dorivor o'simliklar, lanshaft, iqlim, tuproq, tabiiy, sho'rxok, qurg'oqchil, geologik, flora.

ECOLOGICAL AND AESTHETIC IMPORTANCE OF NAVOI  
CITY PLANTS, IMPACT ON HUMAN HEALTH

**Abstract:** This article provides information on the ecological and aesthetic importance of the plants of Navoi city, their number and types, their role in human life, and the measures taken to ensure the diversity of the flora of Navoi city. raised In addition, breeding of plants that grow in the saline and arid lands of Navoi city, as well as researching the work activities that should be done during the plantation process and its practical application are explained in detail. . Among urban plants, detailed information about useful and medicinal plants that have a positive effect on human health has been provided.

**Key words:** ecology, environment, medicinal plants, landscape, climate, soil, natural, saline, arid, geological, flora.

ЭКОЛОГО-ЭСТЕТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ РАСТЕНИЙ ГОРОДА  
НАВОИ, ВЛИЯНИЕ НА ЗДОРОВЬЕ ЧЕЛОВЕКА

**Аннотация:** В данной статье представлена информация об экологическом и эстетическом значении растений города Навои, их количестве и видах, их роли в жизни человека, а также мерах, принимаемых для обеспечения разнообразия выращиваемой флоры города Навои. Кроме того, подробно объясняется

селекция растений, произрастающих на засоленных и засушливых землях города Навои, а также исследование работ, которые следует проводить в процессе посадки и их практическое применение. Среди городских растений представлена подробная информация о полезных и лекарственных растениях, положительно влияющих на здоровье человека.

**Ключевые слова:** экология, окружающая среда, лекарственные растения, ландшафт, климат, почвы, природные, засоленные, аридные, геологические, флора

Kirish: Navoiy shahri o‘simliklarining ekologik va estetik ahamiyati, inson salomatligiga ta’siri

### **Ekologik ahamiyati**

➤ Navoiy shahrining o‘simliklari mahalliy ekotizimni barqarorlashtirishda muhim rol o‘ynaydi, bundan tashqari shaharning ekologik holatini havo tarkibidagi zaharli gazlarning (uglerod oksidi, azot oksidi, oltingugurt dioksidi, ammiak) miqdorini kamaytirishda sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

➤ Havoni tozalash: O‘simliklar atmosferadan karbonat angidridni yutib, kislorod ishlab chiqaradi, chang va zararli gazlarni filtrlaydi. Bunga misol qilib Navoiy shahridagi bir dona yetuk daraxt taxminan yiliga 20 kg CO<sub>2</sub> gazini yutib O<sub>2</sub> chiqarishi aniqlangan. Bu sanoat hududlari yaqinidagi ekologik muvozanatni saqlash hamda uning musaffoligini ta’minlashga yordam beradi. Ko‘chalardagi manzarali daraxtlar chang va avtomobil gazlarini yutish orqali atrof-muhitni tozalashga hissa qo‘shadi.

➤ Iqlimni yumshatish: Navoiyda yoz faslida harorat yuqori bo‘lishi hamda yuqori darajadagi havo harorati ko‘pchilik insonlar xususan yoshi kattalar orasida salomatligidagi turli xil muammolarni keltirib chiqaradi. Bunday holatda daraxtlar soyabon vazifasini bajaradi, bunga qo‘shimcha ravishda tuproq haroratini 2-3°C pasaytiradi va suv bug‘lanishini nisbatan oshirib, iqlimdagi kuchli o‘zgarishlarni pasaytiradi. Shahar atrofida tashkil etilgan yashil zonalar shamol tezligini pasaytirib tuproqning sho‘rlanish darajasini pasaytirib hududning iqlimiy barqarorligiga ijobiy yordam beradi.

➤ Tuproqni mustahkamlash: Ko‘p yillik daraxt va butalar eroziyaning oldini olishda samarali bo‘ladi. Navoiy shahri atrofidagi cho‘l va yarim cho‘l (Qizilqum, Qarnob, Sandiqli) zonalar shamol eroziyasiga moyil. Daraxt va butalar qum ko‘chishini va uni uzoq hududlarga tarqalishini oldini olishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Misol uchun, saksovul va qandim kabi o‘simliklar ildizlari orqali qumni bir joyda ushlab turadi va biologik tabiiy to‘siq vazifasini bajaradi (p.1 66-bet).

➤ Biologik xilma-xillikni saqlash: Shahar o‘simliklari qushlar, asalarilar va boshqa hasharotlar uchun boshpana bo‘lib bundan tashqari ozuqa manbai bo‘lib xizmat qiladi .

### **Estetik ahamiyati**

❖ Navoiy shahri landshafti o‘ziga xos bo‘lib , bu yerda turli xil o‘simliklarning florasini uchratish mumkin. Shu o‘rinda gulzorlarning roli: rang-barang gullar odamlarning estetik qoniqishi hamda hotirjamlik baxsh etadi. Misol uchun, atirgul va nastarin gulzorlarida xushbo‘y hid va chiroyli ko‘rinishga ega bo‘lganligi uchun ularni shahar hududida keng miqyosda ekiladi.

❖ Yashil maydonlar: Parklar va xiyobonlarda yaratilgan yashil zonalar shaharga xushmanzara ko‘rinish va ko‘rk bag‘ishlab turadi. Shahar atrofidagi yashil hududlar va o‘simliklar tarixiy va madaniy obidalar bilan uyg‘unlashgan holda ularning jozibadorligini yanada oshiradi. Misol uchun Navoiy atrofidagi gulzorlar mahalliy an‘anaviy tadbirlarni yanada boyitishda xizmat qiladi.

❖ Landshaft dizayni: Zarang va chinor daraxtlari ko‘chalarni soyabon bilan ta‘minlaydi. Qishda ham bargli bo‘lmagan holda estetik qiyofani saqlovchi turli xildagi daraxtlar keng tarqalgan. Gulzorlar va daraxtlar shaharning estetik qiyofasini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, akatsiyali, terak va o‘rik daraxtlari bu yerda keng tarqalgan.

❖ Madaniy va tarixiy obidalarining yondoshligi: Ko‘pgina o‘simliklar tarixiy joylarni o‘rab turgan holda estetik jozibadorlikni oshirish bilan birga ularni yanada e‘tibor markazida saqlab turishga xizmat qiladi. Hozirgi kunda Navoiy hududida joylashgan madaniy meroslarimizni qadrlash hamda ularning jahon miqyosida tanilishiga ushbu obidalarni o‘rab turgan xilma xil flora va faunaning ahamiyati beqiyos(p.2 34-bet)

### **Inson salomatligiga ta‘siri**

O‘simliklarning inson salomatligiga ta‘siri ikki asosiy yo‘nalishda nomoyon bo‘ladi hamda inson uchun ijobiy yoki salbiy ta‘sir etadi. Bundan tashqari hozirgi kunda inson salomatligiga salbiy ta‘sir etuvchi 100 lab omillar orasida iqlim muommosi alohida o‘rin egallaydi.

Jismoniy salomatlikka ta‘sirini hozirgi kun olimlari tomonidan juda ko‘plab izlanishlar olib borilmoqda. So‘nggi yillarda atrof muhitda zaharli gaz va ionlarning miqdori oshib borayotganligi shu bilan birga o‘simliklar sonining keskin kamayib ketyotganligi insoniyatning jismoniy va aqliy salohiyatiga salbiy ta‘siri kun sayin ortib bormoqda.






Havoning tozaligi nafas olish yo‘llari kasalliklarining ( bronxit, laringet, faringet, zotiljam va boshqa ko‘plab allirgik kasalliklar) kamayishiga yordam berishi bilan bir qatorda ularni oldini olishga ham katta yordam bermoqda. Asosan shahar hududida

tashkil etilgan yashil hududlar insonlarni yanada ko'proq kislorod bilan ta'minlash bilan birga ularga hush kayfiyat bag'ishlaydi.

Barchamizga ma'lumki yashil hududlar inson yurak-qon tomir tizimi va asab tizimiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'simliklarning jozibador ko'rinishi insonlarni har davrda o'ziga jalb qilib kelgan shu sababli shahar va qishloqlarda asosiy e'tiborni yashil o'simliklarni ekish ularni parvarishlashga qaratilgan. Bunga asosiy sabab yashil hududlarni ayniqsa archa va qarag'ayzorlardagi havo tarkibida fitonsid ko'p miqdorda bo'ladi ushbu moddalar ham inson salomatligiga foyda keltiradi.

Parklarda sayr qilish stressni kamaytiradi va bundan tashqari kayfiyatni yaxshilaydi. Shu bilan birgalikda ota onalar bolalari bilan ochiq havoning toza zarralari bilan bahramand bo'lib bolalarning ruhiy va jismoniy holatini yaxshilashga xizmat qiladi. Yam yashillik odamga tinchlik va xotirjamlik hissini uyg'otishga yordam beradi. Quyoshning zarrin nurlari tasirida terida D vitamini sintezi jadaj suratda amalga oshadi. Gulzorlar va daraxtlar birgalikda kasb etgan jozibador manzara ijodiy fikrlash va diqqatni jamlashni yaxshilaydi.

#### 4. Mahalliy o'simlik turlari va ularning ahamiyati

-  Navoiy shahrida uchraydigan ayrim muhim o'simliklar:
-  Saksovul (Haloxylon): Cho'l hududlarida eroziyaga qarshi kurashda muhim.
-  Qandim (Calligonum): Tuproqni barqarorlashtiradi va cho'l iqlimiga moslashgan.
-  Daraxtlar (akasiyali, zarang): Ko'chalarning soyabonini yaratib, issiqlikni kamaytiradi.
-  Gullar (atirgul, nastarin): Estetik zavq bag'ishlaydi va atrof-muhitga xushbo'ylik qo'shadi.

Tabiatda uchraydigan ayrim kimyoviy elementlar radioaktivlik xislatiga ega bo'lib, ularning parchalanishi va elementlarga o'tish jarayonida nurlanish yuzaga keladi. Radioaktiv moddalarning yarim bo'linishi bir necha soatdan 4,5 mlrd. yilga to'g'ri keladi(p.5 188-bet).

Muhitga tushgan radioaktiv moddalarga qarshi kurashi-shning yo'li yo'q, faqat ogohlantirish mumkin xolos, hattoki radioaktiv moddalarning muhitni zararlantirishini neytral holga keltiradigan biologik chirish va boshqa yo'llari, mexanizmlari ham ma'lum emas.

Radioaktiv moddalar yarim parchalanishiga (bir necha haftadan bir necha yil) qadar ular o'simlik va hayvonlar tanasiga o'tib bo'ladi. Ozuqa xalqasi bo'yicha o'simlikdan hayvonga, hayvondan insonga o'tib, uning organizmida to'planadi.

Muhitning ifloslanishi, tirik moddaning hosil bo'lishida qatnashuvchi oddiy elementlarning izotoplari (14, 45 355 3 boshqalar) kam uchraydigan radioaktiv

moddalarga qaraganda ancha xavfli bo'ladi.(p.6 299-bet).

### **Xulosa va munozara**

Umuman olganda Navoiy shahrida o'suvchi barcha o'simlilar havo musaffoligini ta'minlash, inson salomatligiga ijobiy ta'sir ko'rsatish uchun xizmat qiladi. Hozirgi kunda Navoiy shahrida yashil hududlarni kengaytirish yuzasidan qator chora tadbirlar amalga oshirilmoqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Alimov T.A. Rafiqov A. Ekologik xatolik saboqlari. –T.: 1991.
2. Абалкин И. Л. Страхования экологических рисков. - М.: 1998.
3. Акимов Т. А., Хаскин В. В. Экология. М.: 1998.
4. Афанасьев Б. А. Мониторинг и методы-контроля окружающей сре- ды. М.: 1998.
5. Ergashev A Atrof muhitni muhofaza qilis va shahar iqlimshunosligi. -T.:
6. Ergashev A, Ergashev T Ekologiya, biosfera va tabiatni muhofaza qilish. Toshkent 2005